

**IJTIMOIIY FAROVONLIK KONTEKSTIDA KAMBAG‘ALLIKKA
QARSHI KURASH MUAMMOSI, UNING SABABLARI VA IJTIMOIIY
OQIBATLARI**

Meliboyev Azizjon Nizomiddinovich

Qo‘qon davlat universiteti

falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Telefon nomeri: +99894 499-04-17

E-mail: aziznizomiddinovich@gmail.com

[UO‘K101.1:316.323\(575:1\)](#)

https://orcid.org/orcid_0009-0000-4632-2476

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy farovonlik kontekstida kambag‘allikka qarshi kurash muammosi, uning kelitirib chiqaruvchi omillar va sharoitlar, kambag‘allik va qashshoqlikning sabablari va ijtimoiy oqibatlari shuningdek, bu muammolar ta’sirida jamiyatda vujudga keladigan noinsoniy hayot tarsi va ko‘rinishlari haqida mulohaza yuritilgan. Shuningdek, jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma’naviy isloxotlardan kutilayotgan asosiy maqsad ham xalq farovonligining asosiy ta’minlash, ularga farovon hayot sharoitlarini yaratish, yosh avlodni o‘z intellektual saloxiyatlarini erkin namoyon qilishlari uchun huquqiy hayot normalarini yaratishdan iboratligi kambag‘allik global muammosining bartaraf etilishi bilan uzuviy bog‘liqligi falsafiy tahlillar asosida ochib berishga harakat qilingan. Qolaversa, kambag‘allik va qashshoqlik o‘rtasidagi asosiy tafovutlar ajratib ko‘rsatilgan.

Tayanch tushunchalar: Ijtimoiy farovonlik, konteksti, kambag‘allik, qashshoqlik, institutsional, taraqqiyot strategiyasi, ijtimoiy nafaqa.

Abstract

The article discusses the problem of combating poverty in the context of social welfare, its provoking factors and conditions, the causes and social consequences of poverty and destitution, as well as the inhumane ways and manifestations of life that arise in society under the influence of these problems. Also, the main goal expected from socio-spiritual reforms in our society is to ensure the basic well-being of the people, create comfortable living conditions for them, and create legal norms of life for the younger generation to freely express their intellectual abilities, and its inextricable connection with the elimination of the global problem of poverty is attempted to be revealed on the basis of philosophical analysis. In addition, the main differences between poverty and destitution are highlighted.

Key concepts: Social welfare, context, poverty, destitution, institutional, development strategy, social benefits.

Аннотация

В статье рассматривается проблема борьбы с бедностью в контексте социального обеспечения, факторы и условия её возникновения, причины и социальные последствия бедности и нищеты, а также антигуманные способы и проявления жизни, возникающие в обществе под влиянием этих проблем. Также указывается, что главной целью социально-духовных реформ в нашем обществе является обеспечение базового благосостояния людей, создание для них комфортных условий жизни и создание правовых норм жизни для молодого поколения, позволяющих ему свободно проявлять свои интеллектуальные способности. На основе философского анализа раскрывается её неразрывная связь с ликвидацией глобальной проблемы бедности. Кроме того, выделяются основные различия между бедностью и нищетой.

Ключевые понятия: социальное обеспечение, контекст, бедность, нищета, институциональный, стратегия развития, социальные пособия.

Kirish: Aholi turmush farovonligi daromadlar darajasiga bog‘liq ekan, bozor islohotlari daromad topishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otishi bilan birga kambag‘allik

oilalarning ham mavjud bo'lishini keltirib chiqaradi. Kambag'alliklik daromad va iste'mol orqali belgilanadi hamda daromadlar tengsizligining hosilasi sifatida namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish aholi daromadlari darajasining kuchli tabaqalashuvini keltirib chiqarishi bilan birga, boy tabaqaning paydo bo'lishini va ular sonining ortib borishini ta'minlasada, bir vaqtning o'zida kambag'allik qatlamlarning ham mavjud bo'lishini inkor etmaydi. Shu o'rinda Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Rivojlanayotgan davlatlarning ijtimoiy dasturlariga resurslarni keng jalb etish maqsadida kambag'allikka qarshi kurashishning yangi moliyaviy arxitekturasini yaratish vaqti keldi deb hisoblaymiz", [1] — deya takidlagan fikrlari mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Kambag'alliklik har bir jamiyat uchun xos bo'lgan ko'rinish bo'lsada, uning darajasi va ko'lami har xil bo'lishi mumkin. Kambag'alliklik darajasini belgilash ham turli mamlakatlarda o'ziga xos yondoshuvlar doirasida amalga oshiriladi. Chunki, bir mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi, undagi resurslar, tarixiy qadriyatlar, turmush tarzi, milliy qarashlar, madaniyat va urf-odatlar farqlanadi. Bu farqlanish kambag'alliklikning ham farqlanishiga olib keladi. Shuning uchun erishilgan daromadlar darajasi va iqtisodiyotning tuzulishi bilan bog'liq holda har bir mamlakatda kambag'alliklik o'ziga xos xususiyat kasb etadi. 2024 yil sentabr oyida Shavkat Mirziyoyev "Kambag'allikdan farovonlik sari" xalqaro forum ochilishida so'zlagan nutqida 2024-yili kambag'allik darajasi 8,9% ga tushirilgani, yil yakunigacha uni 6% gacha kamaytirish maqsad qilinganini [2] aytgandi. Bu natijaga erishish esa bu yo'nalishda qattiq ilmiy izlanishlar olib borilishini ta'lab qiladi deb o'ylaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology): O'zbekiston Respublikasi-ning Birinchi Prezidenti asarlari [3] dagi, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari [4]dagi kambag'allik va qashshoqlikni qisqartirish borasidagi konseptual g'oya va fikrlari mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

O'zbekistonda kambag'allik va qashshoqlikning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy

asoslari, ijtimoiy ta'siri, unga qarshi kurashish vazifalarini olimlardan A.V.Vaxabov, B.X.Umrzaqov, M.K.Abdullayevalar tomonidan o'rganilgan[5]. Shuningdek, kambag'allikning kelib chiqishi sabablari, kambag'allik darajasini aniqlash mexanizmi, metodologiyasi va kambag'allikni qisqartirishning ayrim masalalari B.Sh.Xusanov, B.K.G'oyibnazarov, D.M.Karimova, X.X.Abdurahmonov, N.U.Arabov, M.M.Xolmuxamedov, N.M.Majidov, R.F.Djumanov[6], kambag'al va ehtiyojmand aholini ijtimoiy himoya yo'nalishlari va ularning qamrov darajasini oshirish M.A.Xakimova, B.B.Baxtiyorov, M.O.Mirzamaxmudovalar tomonidan o'rganilgan [7].

Shuningdek maqolani yoritishda tarixiylik, qiyosiy (komparativ) tahlil, analiz va sintez singari nazariy-metodologik usullardan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions): Kambag'alliklik muammosi iste'mol tarkibi va darajasi orqali yuzaga chiqadi. Bu muammo iste'mol chegarasi bilan izohlanadi. Xususan, minimal iste'mol darajasini belgilash, uning me'yorlari va unga bo'lgan yondoshuvlar kambag'allik muammosi ko'lamini keltirib chiqaradi. Bunda kambag'alliklik darajasini belgilashda qo'yidagi holatlarni hisobga olinishi taqazo qilinadi:

1. Kambag'alliklik darajasini belgilashda har bir mamlakat o'ziga xos vazifa va maqsadlarni ko'zda tutadi. Ayrim mamlakatlar turmush sifatini oshirishni maqsad qilib ko'ysa, boshqalari kishilarni qashshoqlik botqog'idan chiqarishni, ayrimlari esa turmush darajasining pasayib ketishini oldini olishni muhim hisoblaydilar.
2. Turli mamlakatlar milliy iqtisodining rivojlanganlik darajasidan kelib chiqib, hayot kechirish minimumini aniqlaydi. Bunda bir mamlakatda belgilangan kambag'alliklik mezonlari boshqasi uchun to'g'ri kelmasligi mumkin.
3. Amaldagi nochorlarni himoyalash, ularning imkoniyatlari doirasida va davlatning ko'magi ta'sirida o'zaro nisbat, ya'ni o'zini-o'zi ta'minlashi va yordamga muxtojligi qorshima shaklida olib boriladi.
4. Kambag'allikning me'yorlari belgilanadi. Bu me'yorlar jamiyatning rivojlanganlik darajasiga binoan shakllantiriladi. Belgilangan me'yor hayot kechirish minimumini

iste'mol nuqtayi nazaridan emas, balki ta'minot imkoniyatlaridan kelib chiqan holda belgilaydi.

Kambag'alliklik darajasini aniqlashning O'zbekistonga xos jihati shundan iboratki, bunda kishi o'zini zaruriy iste'mol ne'matlari bilan ta'minlay olmasligi, ular xoxlasada buning uddasidan chiqa olmasligi hisobga olinadi. Chunki, jamiyat a'zosi o'zining ijtimoiy maqomiga ko'ra yetarlicha daromadga ega bo'lmasligi tabiiy holat. Bunday tashqari, iqtisodiy holat va vaziyat ularga imkon yaratib bermaydi. Shu bilan birga, ayrim ijtimoiy guruhlar eskidan shakllangan faoliyat turini yangicha sharoitga moslash imkoniyatiga ega emaslar. Natijada bunday subyektlar kambag'alliklikka yuz tutadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, kambag'alikni aniqlash turli mezonlar doirasida amalga oshiriladi. Bu mezonlar ijtimoiy rivojlanish bilan o'zgarib boradi. Eng og'ir iqtisodiy sharoitda hayot kechirish minimumi asosan kishini hayotiyligini ta'minlab turishga qaratiladi. Bunday sharoitdagi mezon asosan oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol darajasiga qaratiladi. Chunki, mamlakatdagi mavjud iqtisodiy holat va yalpi milliy mahsulot miqdori juda nochor bo'lganligidan iste'mol ne'matlarining jiddiy tanqisligi xukm suradi. Masalan, Afg'onistonda bir necha o'n yillar davom etgan urush ishlab chiqarishni tomomila izdan chiqardi. Aholining asosiy qismi nafaqat kambag'al, balki qashshoqlashib qoldi.

Kambag'alliklikni keltirib chiqaruvchi omillar ham mavjud bo'ladiki, ularning ta'siri ijtimoiy guruhlar turmush farovonligida turlicha ahamiyat kasb etadi. Kambag'alliklikka olib keluvchi omillarni quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Transformatsiya yoki iqtisodiy tanglik davridagi iqtisodiy muammolarning chigallashuvi, ishlab chiqarish hajmining keskin pasayib ketishi va subyektlar daromadining qisqarishi, bozor munosabatlariga ko'nikmaning qiyin kechishi.
2. Institutsional o'zgarishlarning nomuvofiq tashkil etilishi, eski iqtisodiy mexanizm bilan yangidan shakllantiralayotgan iqtisodiy mexanizmlar o'rtasidagi ziddiyatlarning mavjudligi.
3. Ishlab chiqarishning hajman va tarkiban qisqarib borishi, ya'ni iste'mol darajasining qisqarmagani holda tovar va xizmatlar turining yetishmasligi.

4. Ish bilan bandlikning cheklanganligi, ishchi kuchida bo'lgan talabning qisqarib ketishi va ishsizlar sonining ortib borishi.
5. Iqtisodiyotning ochiqlik darajasini sust kechishi, iqtisodiy erkinlik berishga haddan ziyod ixtiyotkorlik bilan yondoshilishi.
6. Moliyaviy va byudjet mablag'larining keskin yetishmasligi.

Kambag'alliklik mavjudligi jihatidan doimiy va vaqtinchalik xarakter kasb etadi. Doimiy kambag'alliklik individual xususiyatga ega bo'lsa, vaqtinchalik kambag'alliklik sotsial-iqtisodiy xususiyatga ega bo'ladi.

1.2-jadval

Kambag'alliklik	
Doimiy	Vaqtincha
Qarilik	Ishsiz qolish
Yoshlikdan mehnat qobiliyatini yo'qotish	Tabiiy ofat
Ko'p bolali bo'lish	Bozor narxining o'zgarishi
Boquvchidan ayrilib qolish va x.k.	Bankrotlikka uchrash va x.k.

Pul topish orqali tirikchiligini o'nglab olish imkoniyati tug'ilgansharoitda vaqtincha kambag'allar faol harakatga tushadi, lekin bunday imkoniyatga doimiy kambag'allar ega emas. Shuning uchun, kambag'alliklik muammosiga e'tibor berilganda doimiy kambag'alliklar bir tekisda qo'llab-quvvatlansa, vaqtincha kambag'alliklarga tabaqalashgan holda yondoshiladi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, rivojlanmagan mamlakatda ixtiyoriy kambag'alliklikka nisbatan noiloj kambag'alliklik ustuvor bo'ladi. Bunda, salohiyatning zaifligi kambag'alliklikning asl sababi bo'lsa, shu bilan birga aholining tez ko'payishi ishlab chiqarishdagi yetishmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Kambag'alliklikning doimiy va vaqtinchalik bo'lishi o'tkinchi holat bo'lsada, rivojlanmagan mamlakatlarga doimiy kambag'alliklik, boy mamlakatlarga esa vaqtinchalik kambag'alliklikxos bo'ladi. Lekin, kambag'alliklikni umuman yuqotib

bo'lmaydi. Faqat uning miqiyosini qisqartirish mumkin xolos. Chunki, jamiyatda hamma ham o'zining ahvolini yaxshilashga to'g'ridan to'g'ri jazm qilavermaydi.

Kambag'allik har qanday tizim uchun xosdir. Ammo uning keskinlashib borishi ishlab chiqarilgan mahsulot va jamg'arilgan boylik hajmiga, mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatiga, halkning farovonligiga bog'liq ravishda jiddiy farqlanadi. Shuning uchun har bir davlatda o'z milliy iste'mol me'yori, ya'ni yashash minimumi mavjud bo'lib, u ishlab chiqarish imkoniyatlari, millatning boyligi, an'analar, mentalitet (o'ziga xoslik) va boshqalarga bog'liqdir. Ushbu me'yorlarga ega bo'lmagan kishilarni kambag'allarga qo'shadilar.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholi turmush darajasining yaxshilanishi bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, albatta hukumat tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar hamda amaliy harakatlar natijasiga bog'liq bo'ladi. Bu bilan kambag'allik muammosining davriy yechimlariga erishish mumkiligi nazarda tutilgan.

Kambag'allik muammosi va uni bartaraf etishda asosiy diqqat-e'tibor avvalo aholining yashash sharoitini kuzatish, haqqoniy baholash va undagi muammo ildizlari hamda muhim omillarini tahlil etishdan boshlanadi.

Aholi turmush farovonligini izohlovchi bir qancha ko'rsatkichlar daromad manbalari va ular orqali daromadlar darajasini izohlab berishi bilan dolzarbdir. Aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

1. Mamlakatning rivojlanganlik darajasi;
2. Daromad topish imkoniyatlarining kengligi;
3. Pul topish uchun xuquqiy asoslarning yaratilganligi;
4. Pulning qadrsizlanish darajasi;
5. Mulkka egalik qilish va undan daromad topishda foydalanish.

Umuman olganda, aholining turmush darajasiga izoh berganda aholi tasarrufida bo'lgan pul va natural daromadlar tushumlar miqdorini qo'shma ravishda hisobga olish zarur bo'ladi. Chunki O'zbekistonda turmush darajasi bevosita iste'mol miqdori

va sifati bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘lib, uni qondirishda pul va natural daromad turining har ikkalasi ishtirok etadi. Pul yoki natural tushumlar ham daromad sifatida qaralishi lozimki, bu kishi yoki xonadonning daromadini tashkil etadi va turmush farovonligi daromadlarga bevosita bog‘liqligini ifodalaydi. Aholi turmush farovonligi daromadlar darajasiga bog‘liq ekan, bozor islohotlari daromad topishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otishi bilan birga kambag‘al xonadonlarning ham mavjud bo‘lishini keltirib chiqaradi. Kambag‘allik daromad va iste‘mol orqali belgilanadi hamda daromadlar tengsizligining hosilasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da 100 maqsadni amalga oshirish ko‘zda tutilgan [8]. Strategiyaning 85-maqsadida quyidagilar ko‘zda tutilgan:

- mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish.
- kambag‘allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.
- norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to‘liq foydalanish imkoniyatini yaratish.
- ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish. Ish bilan band bo‘lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.
- davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishda mahalliy darajada (“mahallabay” tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo‘lga qo‘yish.
- hududlar, shaharlar va tumanlar kesimida kambag‘al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarni yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish, kambag‘allikning qayta tiklanish xavfini bartaraf etish. Hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish.

- ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha ehtiyojmand aholining kamida 85 foizini ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va aholi qatlamlariga, shuningdek, vaqtinchalik og'ir sharoitga tushib qolgan fuqarolarga to'g'ridan-to'g'ri davlat ijtimoiy yordamini ko'rsatish kabi masalalar bayon qilingan [9].

O'zbekistonning o'z yangilanish taraqqiyot yo'liga asos bo'lgan eng muhim qoidalaridan biri bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazishdir. Qolgan barcha qoidalar ijtimoiy vazifalarni hal etishga, aholini ijtimoiy himoyalash sohasida qat'iy kafolatini vujudga keltirishga qaratiladi. Aholini ijtimoiy himoya qilish va kambag'allikni qisqartirish jarayonni shaffofligi, natijadorligi va manzilliligini ta'minlash maqsadida davlat ijtimoiy xizmat va yordamlarini avtomatlashtirilgan "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali taqdim etish amaliyotga joriy etildi. Uning funksional imkoniyatlari kengaytirilishi natijasida ko'rsatiladigan davlat ijtimoiy xizmatlari soni 30 taga yetkazilishi belgilangan [10].

Aholini ijtimoiy himoya qilish siyosati – bu davlatning fuqarolar shaxsiy hayotiga aralashishi emas, balki inson haq-huquqlarini, jumladan, inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi hamda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda yozib qo'yilgan, har bir kishining turmush darajasi yetarli darajada yuqori bo'lishini, oziq-ovqat, uy-joy, ish bilan ta'minlashni yaxshilashga, salomatligini tiklashga, madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va pensiya ta'minotini yo'lga qo'yishga qaratilgan tadbirlar majmuasidir.

Bugungi kunga kelib ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlanadigan aholi soni qariyb 1,5 barobar oshirildi. Ushbu toifani qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotimizni tiklash uchun davlat byudjetidan nihoyatda katta mablag' ajratildi. Keyingi paytda uyma-uy yurib o'rganish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish, ehtiyojmand oilalarni aniqlashning o'ziga xos fuqarobay va mahallabay yangi tizimi shakllantirildi. Shuningdek, moddiy yordam va ko'makka muhtoj, boquvchisini yo'qotgan oilalarning farzandlarini va nogironligi bo'lgan bolalarni qishki kiyim-bosh to'plamlari, maktab formasi va o'quv qurollari bilan ta'minlash maqsadida moddiy yordam ko'rsatilmoqda [11].

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalashni yaxshilash, uning samarasini ko'tarish quyidagi muhim vazifalarni xalq etishga bog'liqdir.

Birinchidan, bu – ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va muttasil rivojlantirish. Pul qadrsizlanishiga qarshi samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, milliy valyutani va ichki iste'mol bozorini mustahkamlash natijasida islohotlarning boshlang'ich bosqichidayok turmush darajasini saqlab qolish va uning keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik imkoni yaratildi.

Ikkinchidan, bu – davlat mablag'lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlari va jamgarmalarining mablaglarini keng jalb etish.

Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishda mahalliy xokimiyat va boshqaruv organlarining huquqlari ancha kengaytirilishi hamda ma'suliyati oshirilishi lozim. Ular hududning imkoniyatlarini hisobga olgan holda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasida qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga haqlidir. Mahalliy organlarning asosiy vazifasi – odamlarga o'z farovonliklarini yuksaltirish maqsadida mehnat qilish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishdan iborat.

Ijtimoiy siyosat, uni amalga oshirish mexanizmlari odamlarning mehnatdagi faolligini va tadbirkorligini o'stirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilishi darkor.

Uchinchidan, bu – odamlarning kuch va qobiliyatlari to'la-to'kis faollashuvini ta'minlashga qodir bo'lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish. Bu mexanizmni birinchi navbatda, har bir kishining iqtisodiy erkinligi, uning o'zi va oilasining baxt-saodati uchun iqtisodiy javobgarligi bilan uyg'unlashadigan shart-sharoitlarni yaratish hisobiga shakllantirish lozim. O'z qobiliyat va mehnatiga tayanib ish tutish farovonlikning birdan-bir va eng barqaror manbai bo'lib qoladigan munosabatni vujudga keltirish. Buning uchun xususiy mulk institutining rivojlanishini tezlashtirish juda muhim hisoblanadi.

To'rtinchidan, bu – aholining daromadlarida va turmush darajasida asossiz katta farqlarga yo'l qo'ymaslik. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan katamlarni shakllantirish talab etiladi.

Aholini ijtimoiy himoyalash borasida ko‘rilgan chora-tadbirlar aholining daromadlar darajasi bo‘yicha keskin tabaqalanishi mumkinligining oldini oldi.

Beshinchidan, bu – qashshoqlikka qarshi kurash. Aholi eng muxtoj qatlamining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini kuchaytirish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aholining ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy yordam va xizmatlar bilan to‘liq qamrab olish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirildi:

- ijtimoiy yordam va xizmatlarning shaffof va adolatli tarzda ko‘rsatilishi;
- ijtimoiy yordam va xizmatlarning har biri aniq maqsadga yo‘naltirilganligini ta‘minlash;
- aholining ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy yordam va xizmatlar bilan bosqichma-bosqich to‘liq qamrab olishga e‘tibor qaratilishi;
- ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam va xizmatlarning aholini mustaqil daromad manbaini yaratishiga xizmat qilishi;
- ijtimoiy yordam va xizmatlar ko‘rsatishning huquqiy asoslarini takomillashtirib borishdan iborat.

Strategik maqsad bo‘lsa, ijtimoiy himoya tizimining manzilliligini kuchaytirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish va barcha ehtiyojmandlarni ijtimoiy himoya bilan to‘liq qamrab olishga erishish. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- ijtimoiy xizmatlar tizimini isloh qilish, rivojlantirish va kengaytirish, buning uchun mahalla darajasida ijtimoiy ish tizimini joriy etish va ijtimoiy xizmat turlarini tasniflash, aniq ijtimoiy xizmatlar standartlarini belgilash hamda ijtimoiy xizmat sohasida professional xodimlarni tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish;
- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun xizmatlar ko‘rsatish va ularning xilma-xilligini oshirish maqsadida “ijtimoiy buyurtma” asosida ijtimoiy xizmatlarni ishga tushirishning huquqiy asoslarini yaratish. Bunda, ijtimoiy yordam va xizmat ko‘rsatuvchilar bilan shartnoma tuzish va xizmatlar ko‘rsatish samaradorligi ustidan monitoring qilish asosida ijtimoiy xizmatlarni rejalashtirish;
- mamlakatda har bir uy xo‘jaligining ehtiyojidan kelib chiqqan holda zarur bo‘lgan imtiyozlar va ijtimoiy xizmatlar bo‘yicha maslahat berish uchun professional

ijtimoiy xodimlar tizimini shakllantirish. Bunda, ularning faoliyati aholini kambag'allikdan chiqarish, to'laqonli ijtimoiy-iqtisodiy hayotga qaytarishga qaratish;

- mehnat organlarida aholi bandligiga ko'maklashish masalasida ijtimoiy xizmatlar qamrovini kengaytirish, moddiy qo'llab-quvvatlash va ishga joylashishga ko'maklashish tizimini raqamlashtirish;

- pensiya yoshidagi aholini qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, jumladan, pensiyalarning tayanch miqdori sifatida pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining miqdorlarini moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqish;

- imkoniyati cheklangan shaxslar jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida faol ishtiroki uchun to'siqsiz muhit yaratish.

Bugungi kunda mamlakatimizda yuritilayotgan davlat siyosatining asl mohiyati va pirovard maqsadi – “xalqimizning dardu tashvishlari, hayotiy muammo va ehtiyojlaridan doimo xabardor bo'lib, uning moddiy farovonligini oshirish, munosib turmush darajasi va sifatini ta'minlash, tinch hayotini himoya qilish” [12] fikridan kelib chiqqan holda, kambag'allikdan chiqish va bu tushunchaning asl mohiyatiga e'tibor qilish, turmush darajasi va sifatini ta'minlash masalasini tahlil etish zarur bo'ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations): Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- aholining turmush darajasini oshirish va mamlakat ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishining eng muhim ustuvorligi sifatida ishsizlik darajasini pasaytirishga e'tiborni kuchaytirish lozim;

- nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda odamlarimizni tadbirkorlikka o'qitishning eng ilg'or dasturlarini ishlab chiqish va kasbga o'qitishda nodavlat tashkilotlarning faolligini kuchaytirish;

- fuqarolarning oilaviy byudjeti daromadlarini oshirishning eng samarali shakllaridan biri sifatida kasanachilik mehnatini rivojlantirish kerak;

- ishga joylashishga muhtoj shaxslarga kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini kengaytirish, bozor ehtiyojlarini hisobga olgan holda maqbul shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan choralar ko'rish;
- aholining real pul daromadlari va xarid layoqatini oshirish, buning uchun ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalarni inflyatsiya sur'atlaridan oshadigan miqdorda oshirish.
- kambag'allikdan chiqarish uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlardan va aholi tomorqalaridan maqsadli, samarali foydalanishda mikroklaster tuzilmalarini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi;
- iqtisodiyot tarmoqlarining aholi turmush darajasini oshirishga ta'sirini chuqur o'rganish, bu borada ko'proq ilmiy tadqiqotlar olib borish;
- aholining ish bilan bandlik darajasini va daromad topish imkoniyatlarini oshirish;
- aholining iste'mol talabi bilan ishlab chiqariladigan mahsulot va xizmatlar hajmini muvofiqlashtirish;
- mamlakatimizda aholining yashash sharoitlari va standartlarini yanada yuqori darajaga ko'tarish;
- aholining munosib turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan infrastrukturani jadal rivojlantirish va boshqalar[13].

Shu o'rinda -“Joriy yilda 5 million aholimiz daromadli bo'lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag'allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla “kambag'allikdan xoli” hududga aylandi. Ta'kidlash kerakki, yurtimizda kambag'allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi” [14] bu ko'rsatkichlar bu masalaga davlat siyosati darajasida e'tibor berilyotganligining isboti deb ayta olamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kambag'alliklik mohiyatan iste'moldagi yetishmachiliklar bilan izohlansa, bu yetishmovchilik salbiy ijtimoiy holat sifatida chuqurlashib borishi mumkin. Shuning uchun, jamiyatda shunday ijtimoiy mexanizm amal qilishi kerakki, bunda daromad topishga bo'lgan intilish, ertangi kunga bo'lgan ishonchni mustahkamlab, turmush farovonligini o'stirishi uchun shart-sharoitlarni yaratishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh. <https://www.spot.uz/oz/2025/11/04/poverty-level/>
2. Shavkat Mirziyoyev “Kambag‘allikdan farovonlik sari” xalqaro forum ochilishida so‘zlagan nutqida (<https://www.google.com>).2024.09.
3. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. Tom. 1-24. – Toshkent: O‘zbekiston. 1996-2015.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Tom.1. – Toshkent: O‘zbekiston. 2017. – 592 b; Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Tom. 2. –Toshkent: O‘zbekiston. 2018. – 508 b; Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Tom. 3.- Toshkent: O‘zbekiston. 2019. – 400 b.; Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 452 b.; Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O‘zbekiston. 2021. – 454 b.
5. Vaxabov A.V., Bahtiyorov B.B. Aholini ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini kuchaytirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. –T.: “Universitet” nashriyoti, 2020. – 154 b.; Umurzakov B.X. va b. Mehnat resurslari shakllanishi va taqsimlanishining hududiy usullari. Monografiya. –T.: “Lesson Press”, 2017-y. -184 b.; Abdullayeva M.K. Ijtimoiy himoya va uni tartibga solishni takomillashtirish yo‘nalishlari. // Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2008. - 25 b.

6. Xusanov B.Sh. Проблемы регулировании финансового механизма социального обеспечения населения // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук: - Т.: 2011. - 25 с.; G'oyibnazarov B.K. Aholi turmush darajasini statistik baholash. Monografiya. –Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2005 – 69 b.; Abdurahmonov X.X, Arabov N.U. Xolmuxamedov M.M. Aholi daromadlari va turmush sifati. Monografiya. – T: “Tafakkur bo‘stoni”. 2014.– B. 127-139.
7. Xakimova M.A. Reformirovaniye i razvitiya sotsialnogo sektora Uzbekistana v usloviyax perexoda k rынку. // Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук: - Т.: 2000, - 38 с.; Baxtiyorov B.B. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari // Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati 2020. - 55 b.; Mirzamaxmudova M.O. Aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlashning nazariy asoslarini takomillashtirish // Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati 2022. - 56 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>
10. <https://uza.uz/uz/posts/> O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ishlar qanday natija bermoqda?
11. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 199.
12. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017. – B.312.
13. Rustamov N.I. Aholi turmush darajasi va o‘zbekistonda uni oshirish imkoniyatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2015. – B. 1-9.
14. Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi